



O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA DINIY-MA'RIFIY QADRLARNI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY YO'LLARI

Murodov Jahongir Jumaboyevich

Qo'qon shahar 3- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori

Erkaboyeva Kanizaxon Hayotjon qizi

Qo'qon davlat universiteti 2- bosqich magistranti. erkabaevakaniza@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda diniy-ma'rifiy qadriyatlar va madaniy merosning o'rni tahlil qilingan. Maqolada Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, "O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" loyihasi va Islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etilishi hamda ularning xalqaro maydondagi ahamiyati yoritilgan. Asosiy e'tibor yoshlar ongiga ma'rifatli islom g'oyalari singdirish orqali ularda yod g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilish masalalariga qaratilgan. Maqola yakunida madaniy meros orqali diniy ma'rifiy rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar berilgan.*

Tayanch so'zlar: *din, islom dini, ma'rifatli islom, yoshlar, mafkuraviy immunitet, dunyo.*

Аннотация: *В данной статье проанализирована роль религиозно-просветительских ценностей и культурного наследия в духовно-нравственном воспитании молодежи на современном этапе развития Нового Узбекистана. Освещаются реформы, реализуемые по инициативе Шавкат Мирзиёев, в частности проект «Узбекское культурное наследие в мировых собраниях», а также создание Центра исламской цивилизации и их значение на международной арене.*

Основное внимание уделено вопросам формирования у молодежи понятия «просвещенный ислам» и выработки у них идеологического иммунитета против чуждых идей. В заключительной части статьи предложены практические рекомендации по развитию религиозно-просветительской сферы посредством культурного наследия.

Ключевые слова: *религия, исламская религия, просвещенный ислам, идеологический иммунитет молодежи, мир*

Bugungi kunda har bir davlat va jamiyatni tashvishlantirayotgan masala yosh avlodni ma'naviy barkamol, aqlan yetuk, jismonan sog'lom qilib tarbiyalash masalasidir. Ma'naviyatning rivojlanishi, birinchi navbatda, uning tarkibiy qismlari: ma'naviy ong, ma'naviy madaniyat, iroda va ma'naviy muhit rivojlanishiga bog'liq. Bizning jamiyatimizda din ma'naviyatning asosiy sohalaridan hisoblanadi. Xayrullo Sultonovning "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati" nomli kitobida shunday ta'kidlaydi: "Din jamiyat hayotida guruh va ayrim shaxslar hayotida rang-barang



vazifalarni bajaradi. Insonga xudoni va uning payg'ambarlarini tanitish, oila nikoh masalalarini tartibga solish, diniy-axloqiy hamda estetik qadriyatlarni, me'yorlarini shakllantirish, yosh avlodni ajdodlarning diniy tajribalaridan shular jumlasidan deb ta'kidlaydi⁶ Darhaqiqat, olim tomonidan bildirilgan fikr bugungi kunda o'z isbotini topayotganday. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichini boshlagandan buyon diniy-ma'rifiy sohada o'zbek millatining hissasini kattaligini ne chog'liq muhim o'rin tutishini ko'rsatish yo'lida talaygina ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda 2017-yildan buyon shu sohada tubdan o'zgarishlar boshlandi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zbek xalqining tarixiy, badiiy va ma'naviy merosini saqlash va yanada ko'paytirish yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalarini davlat siyosatiga molik muhim vazifalar qatoriga qo'ydi. Uning ushbu islohotlarning debochasi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" kitobida: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Tarixiy merosni asrab avaylash, o'rganish avloddan avlodga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"⁷- deydi.

Ushbu ishlarning kirish qismi sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil, avgust oyida mamlakat ijodkor ziyolilari bilan bo'lgan uchrashuvda milliy madaniyat, adabiyot va san'atni rivojlantirishning dolzarb masalalarini muhokama qilinishi desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekistonda madaniy merosning shakllanishi uning yangi taraqqiyot bosqichidan keyingi bosqichga ko'tarildi. Islohotlar natijasida O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida multimedia loyihasi dunyoga keldi. Loyiha zamirida bizning qadimiy o'lkada yaratilgan ammo ba'zi sabablarga ko'ra xorijda saqlanayotgan O'zbekiston madaniy merosi durdonalarini kataloglashtirish amalga oshirildi. Ushbu g'oya O'zbekistonning boy madaniy merosini dunyoga tanitish uchun muhim qadamlardan biri bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston madaniy merosini tadqiq qilish bilan shug'ullanib kelgan dunyo olimlari loyihaga jalb qilingach ular ilk bor 2017- yil may oyida Samarqandda Registon maydonida bo'lib o'tgan "O'zbekiston madaniy merosi - mamlakatlar o'rtasidagi muloqotga yo'l " I - Xalqaro ilmiy madaniy kongressida olimlar sa'y- harakatini birlashtiruvchi jamiyat yaratish g'oyasi ilgari surildi.

2018- yil Rossiyaning Sank- Peterbburg shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston madaniy merosi - mamlakatlar o'rtasidagi muloqotga yo'l " II Xalqaro ilmiy madaniy kongressida O'zbekiston madaniy merosini o'rganish saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butun Jahon Hamjamiyati (WOSCU) tashkil qilindi. YUNESKO tomonidan ham e'tirof etilgan va qo'llab quvvatlangan voqelik mamlakatimiz madaniy merosiga butun jahon munosabati shakllanganidan darak beradi. Chunki tarix bir mamlakat

⁶ O.Salimov va boshqalar. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. "O'zbekiston" Toshkent.2022. B - 109.

⁷ Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston.".Toshkent.2017. B - 29.



merosini o'rganish uchun butun dunyo olimlari jamlangan bunday keng ko'lamli voqelikni bilmaydi.

O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida loyihasi va WOSCUning ilk nashri dunyo olimlarida katta qiziqish uyg'otdi. Loyiha doirasida tayyorlangan kitob albomlarning respublika maktab va oliy ta'lim muassalarida o'quv qo'llanma sifatida foydalanish uchun hamda dunyo kutubxonalariga taqdim etildi. Ushbu kitoblarning Boburiylar me'moriy epigrafikasi Hindiston kitobida Boburiylar davrida 1622-1628-yillarda Nurjahon Begim tomonidan Agra shahridagi Jamna daryosining sharqiy qirg'og'ida bunyod etilgan "E'timod-ud-davla" maqbarasining pastki qavatining tashqi tomonidagi yozuvlar keltirilgan. Ushbu yozuvlarda : "Agar Alloh sizga zararni iroda qilsa, yoki sizga manfaatni iroda qilsa, kim sizlarni Allohdan keladigan biror narsadan to'sishga molik bo'ladir? Ta'kidki Alloh qilgan amallaringizdan xabardordir deb ayt" so'zlaridan iborat. Ushbu so'zlar oq marmar toshtaxtalarga o'yib yozilgan. Yozuvlardan ma'lumki, Boburiylar davri madaniyatida ham Islom dini asosiy ro'l o'ynagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom madaniyati markazi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida“ 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son qaroriga asosan tashkil etildi. Markazda bugungi kunda akademiya, kutubxona, arxiv va qo'lyozmalar fondi tashkil etilib, ularni bugungi O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar va ulammolar tomonidan asos solingan ilmiy va diniy maktablarga doir yurtimizda va chet ellarda saqlanayotgan qadimiy qo'lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar, arxeologik topilmalar, osori-atiqalar, shu yo'nalishdagi zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari, video va foto hujjatlar bilan boyitildi, 300 o'rinli konferensiya zali barpo etildi. Islom sivilizatsiya markazi joriy yilning Navro'z bayrami arafasida ziyoratchilarga ochilishi mamlakatimiz diniy-ma'rifiy qadriyatlarini rivojlantirishda katta qadam bo'ldi.

Makazdagi O'rta Osiyo xalqlari tarixidagi muhim voqealarning tasvirlanishi, VII asrda yozilgan eng qadimgi Qur'oni karimning saqlanishi, O'zbekiston hududida asrlar davomida shakllangan diniy-madaniy, ilmiy bag'rikenglik an'alarini ifoda etishi tarixan o'zbek millatining naqadar buyuk millat ekanini isbotlaydi g'oyo.

Islom sivilizatsiya markazining ochilishi O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy portretida ham muhim o'rin tutdi. Osiyo siyosati va xavfsizlik masalalariga ixtisoslashgan tadqiqotlar yurutuvchi shved olimi, Svante E. Cornell ushbu markazning ochilishi haqida shunday deydi: "O'zbekiston Prezidenti Mirziyoyevning yana bir tashabbusi bilan "Ma'rifatli islom" tushunchasini ilgari surdi. Bu esa Markaziy Osiyoga xos bo'lgan bag'rikeng islom an'alariga tayanib, yangi tarbiya berish va ekstremistik xurujlarga qarshi turishni maqsad qilgan. O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov 2025- yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotida qilgan chiqishida ekstremizmning asosiy sabablarini, ekstremizm va johillikning ildizida jaholat va



bag'rikenglik yo'qligini asoslangan ma'ruzada tushuntirib ta'kidladi".⁸ deydi. Dunyo olimlarining O'zbekistonni islom dinini o'rganilishi bo'yicha bajarilayotgan ishlarining holisona e'tirofi g'arb davlatlarida mavjud islomofobiyaning oz bo'lsada kamaytirishi, mamlakatimiz uchun rivojlanish yo'lida asosiy faktorlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Markazga tashrif buyurgan mehmonlarning O'zbekiston tarixidagi madaniy rivojlanish tarixi hamda Islom dinini ushbu madaniyatda tutgan o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlanmoqda. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Muqaddas dinimiz xalqimizni birlashtirib ma'naviy poklanish odamlarni tinchlik, ezgulik, bag'rikenglik o'zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o'rnini hech narsa bosa olmaydigan vosita bo'lib xizmat qilishi shubxasizdir"⁹ deya ta'kidlaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olib bizning O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida diniy ma'rifiy qadryatlarni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz:

- millatimiz tarixini ulug'laydigan boy madaniy meros orqali diniy-ma'rifiy sohani yanada rivojlantirish;
- respublikamiz 10 mingdan ziyod maktablarining 10-11-sinf o'quvchilarini Islom sivilizatsiya markaziga ekskursiyalar tashkil qilish;
- ekskursiyalarda yoshlar onggida radikal islom o'rniga ma'rifatli islom tushunchalarini singdirish orqali yoshlarda yod g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet xosil qilish;
- respublikamizda tashkil etilayotgan mahallalararo ma'naviy-ma'rifiy tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan oilaga loyiha doirasida ishlab chiqarilgan kitoblar to'plamidan sovg'a sifatida berilishi barchamiz istayotgan ma'rifatli islom g'oyasini keng yoyilishiga xizmat qiladi.

Bugungi kundagi yoshlarda diniy ta'limni biror bir qonuniy o'quv markazlarda olmay mahalliy kesimdan olishi ma'rifatli islom tushunchasiga soya solib, bugungi kunda olib borilayotgan siyosatning faqatgina qarshi tarafiga ishlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.Salimov va boshqalar. "Ma'naviyat asosiy tushunchalar" lug'ati. "O'zbekiston" Toshkent.2022. B - 109.
2. Mirziyoyev SH. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". "O'zbekiston". Toshkent.2017. B - 29.
3. Savant E. Comell, "State and Religion in Central Asia 4", State and Religion in Central Asia (2023): B-23
4. Sh.Mirziyoyev. "Vatan va xalq haqida o'ylar". "O'zbekiston". Toshkent.2025 B - 220

⁸ Savant E. Comell, "State and Religion in Central Asia 4", State and Religion in Central Asia (2023): B-23

⁹ Sh.Mirziyoyev. Vatan va xalq haqida o'ylar. "O'zbekiston". Toshkent.2025 B - 220